


## 2021- yil yanvar-iyun oylari uchun Samarqand viloyatida qurilish ishlari

2021- yilning yanvar-iyun oylarida Samarqand viloyatida jami 3183,1 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʼsish surʼati 2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 110,5 % ni tashkil etdi.




### 2021- yil yanvar-iyun oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi % da



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.


Amalga oshirilgan qurilish ishlari mukchilik shakli, davlat va nodavlat boʼlgan korxona va tashkilotlar tarkibi boʻyicha boʼlinadi.



***Maʼlumot uchun:*** qurilish ishlari hajmi bu – oʼz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



## 2021- yil yanvar-iyun oylarida mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari hajmi



**Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni**

2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra qurilish sohasida ro'yxatdan o'tgan jami korxona va tashkilotlar soni 3,4 mingta, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni esa, 3,2 mingtani tashkil etib, o'tgan 2020- yilning mos davriga nisbatan 392 taga ko'paygan.

2021- yilning yanvar-iyun oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan fuqarolik obyektlarini qurish ishlari hajmi 7,0 martaga ko'payib (jami qurilishdagi ulushi 55,0 %)ni tashkil qildi. Bu qurilish sohasida korxona va tashkilotlar sonining ko'payishiga asosiy omil bo'lib xizmat qildi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlaring eng yuqori ulushi kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-iyun oylaridagi jami qurilish ko'rsatkichiga nisbatan 86,5 % ni tashkil etdi.




### **Samarqand viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalarini soni (birlikda)**

	<b>Holatiga ko'ra:</b>		<b>O'tgan yilga nisbatan, (+,-)</b>
	<b>01.07.2020- yil</b>	<b>01.07.2021- yil</b>	
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>2890</b>	<b>3282</b>	<b>392</b>
Samarqand sh.	1025	1138	113
Kattaqo'rg'on sh.	101	114	13
tumanlar:			0
Oqdaryo	120	147	27
Bulung'ur	64	77	13
Jomboy	113	130	17
Ishtixon	139	153	14
Kattaqo'rg'on	115	136	21
Qo'shrabot	63	74	11
Narpay	82	84	2
Payariq	219	272	53
Pastdarg'om	286	319	33
Paxtachi	60	68	8
Samarqand	123	144	21
Nurobod	41	61	20
Urgut	207	230	23
Toyloq	132	135	3



**Samarqand viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalarining hududlar kesimida ulushi (% da), 01.07.2021- yil holatiga**



**Ma'lumot uchun:** Viloyatda qurilish korxonalari soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan hududlar Samarqand shahri (34,6 %), Pastdarg'om (9,7 %) va Payariq (8,3%) tumanlaridir.

2021- yilning yanvar-iyun oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **614,0** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 2,0 mattani tashkil qilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2020- yilning mos davridagi ko’rsatkich darajasidan 19,3% punktga ko‘paygan.




### Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jamiga nisbatan ulushi, %da



**Ma’lumot uchun:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko‘p ulushi Samarqand shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **30,0** %i yoki 2020- yilning yanvar-iyun olyariga nisbatan **112,1** %ni), Toyloq tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **28,2** %i), Kattaqo‘rg‘on shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **2,0** %i), Bulung‘ur (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **19,8** %i), va Pastdarg‘om (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **12,9**%) tumanlarga to‘g‘ri keldi.



## Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi, % da



### Kichik korxona va mikrofirmalar

- 2021- yil yanvar-iyun
- 2020- yil yanvar-iyun


Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2021- yil yanvar-iyun oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan kamayganligi kuzatildi. Ular tomonidan jami qurilish ishlari hajmining **61,9 %**i bajarilib, 2020- yilning yanvar-iyun oylari ko'rsatkichiga nisbatan **0,9 %** punktga kamaygan.

Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **109,7 %** ni tashkil etgan holda **1969,9** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlaridagi ulushi **18,8 %** ni tashkil etib, **599,2** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan kamayish kuzatilib, **75,1 %** ni tashkil etdi.




## Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **102,7** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilgan boʻlib, oʼsish surʼati 2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **89,4 %** ni tashkil qilib, jami amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi **3,2 %** ni tashkil etdi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **3080,4** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʼsish surʼati **111,4 %** ni va jami amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi **96,8%** ni tashkil etdi.



## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat boʻlgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, % da



Davlat mulki



Nodavlat mulk

2021- yil  
yanvar-iyun

Samarqand viloyatida qurilish ishlari



## Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

2021- yil yanvar-iyun

72,2 %

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo'yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining **72,2 %** yoki **2 299,2 mlrd. so'mni** tashkil etgan.

25,8

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **594,1 mlrd. so'mlik** ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **25,8 %** ni tashkil etdi.

49,6 %

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **1138,5 mlrd. so'm** yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **49,6 %** ni tashkil etdi.

24,6 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasiga **566,6 mlrd. so'm** yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **24,6 %** ni tashkil etdi.



## Hududlar kesimida qurilish ishlari 2021- yil yanvar-iyun oylarida

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m)	O‘sish sur’ati, %da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari (mlrd. so‘m)
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>3183,1</b>	<b>110,5</b>	<b>2299,2</b>
Samarqand sh.	1108,5	109,2	873,7
Kattaqo‘rg‘on sh. tumanlar:	49,0	105,3	48,3
Oqdaryo	216,5	100,6	188,5
Bulung‘ur	163,1	261,6	52,9
Jomboy	139,8	106,2	117,3
Ishtixon	140,6	105,2	117,2
Kattaqo‘rg‘on	85,9	100,5	75,9
Qo‘schrabot	74,8	107,5	59,8
Narpay	87,9	101,9	78,2
Payariq	186,6	104,0	160,9
Pastdarg‘om	231,5	113,2	89,7
Paxtachi	87,5	100,3	85,1
Samarqand	163,2	111,7	59,8
Nurobod	40,2	104,4	13,8
Urgut	161,2	103,0	179,2
Toyloq	246,8	110,3	98,9

\*Hududlar bo‘yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo‘shtgan holda



## Samarqand viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari, %da

2020- yil yanvar-iyun

6,8




Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

20,2



Fuqarolik obyektlarini  
qurish

73,0



Bino va inshootlarni  
qurish

2021- yil yanvar-iyun

2,7



Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

55,0



Fuqarolik obyektlarini  
qurish

42,3



Bino va inshootlarni  
qurish

**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




## Bino va inshootlar qurilishi

### ulushi %da

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **24,0** % ni tashkil etib, 2020-yilning yanvar-iyun oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **4,7** % punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2020- yilning yanvar-iyun oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **0,1** % punktga ko'payib, **49,7** % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektoring ulushi esa 2020- yilning yanvar-iyun oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **4,6** % punktga ko'payib, **26,3** % ni tashkil etdi.



2021- yil  
yanvar-iyun

Samarqand viloyatida qurilish ishlari




## Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

ulushi %da

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **34,4 %** ni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **3,7 %** punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **65,5 %** (3,7 % punktga ko'paydi) hamda norasmiy sektorning ulushi **0,1 %ni** tashkil etdi.



2021- yil  
yanvar-iyun


Samarqand viloyatida qurilish ishlari



## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

ulushi % da

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **15,8 %** ni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **5,1 %** punktga kamaydi. **84,2 %** ulush kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **5,1 %** punktga ko'paydi.



2021- yil  
yanvar-iyun

Samarqand viloyatida qurilish ishlari



## Hududlar kesimida qurilish ishlari 2021- yil yanvar-iyun oylarida

### Eng yuqori hajm

(mlrd. so'm)

Samarqand sh.  
1108,5



1

2

Toyloq  
246,8

Pastdarg'om  
231,5

3



### Eng kichik hajm

(mlrd. so'm)

Nurobod  
40,2

2

1

Kattaqo'rg'on sh.  
49,0

Qo'shrabot  
74,8

3





## SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



**Samarqand viloyati  
Statistika boshqarmasi**

**Investitsiya va qurilish statistikasi  
bo'limi**

*Aloqa telefoni: (66) 230-45-32*

**2021- yil  
yanvar-iyun**

**Samarqand viloyatida qurilish ishlari**